



KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (10-iyul, 2026-yil).– 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

UVAYSIYDAN XUDOYBERDIYEVAGACHA: O'ZBEK AYOL SHE'RIYATIDA LIRIK "MEN" EVOLYUTSIYASI

Egamova Nigora Ustamirzayevna

o'qituvchi, mustaqil izlanuvchi

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti,

Namangan, O'zbekiston

Email: nigoraegamova2@gmail.com

ORCID: 0009-0004-8253-837X

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek ayol she'riyatida lirik "Men" ning XIX asrdan XX asr oxirigacha bo'lgan tarixiy evolyutsiyasi tadqiq etiladi. Mumtoz davr shoirlari Uvaysiy va Nodira ijodida lirik subyekt diniy-tasavvufiy va an'anaviy poetik shakllar doirasida o'z ovozini ifodalagan. Sovet davri o'zbek ayol she'riyatida yangi ijtimoiy mazmun va erkin shakllar paydo bo'lib, lirik "Men" asta-sekin yangilanib bordi. Mustaqillik arafasida va undan keyin esa Halima Xudoyberdiyeva ijodida ayol lirik subyekt o'ta kuchli, mustaqil va isyonkor xarakter kasb etdi. Maqola o'zbek ayol she'riyatining ichki evolyutsion yo'nalishini aniqlashga va har bir davrning o'ziga xos poetik modelini belgilashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: lirik "Men", ayol subyekt, o'zbek she'riyati, Uvaysiy, Nodira, Xudoyberdiyeva, poetik evolyutsiya.

EVOLUTION OF THE FEMALE LYRIC "I" IN UZBEK WOMEN'S POETRY FROM UVAYSIY TO XUDOYBERDIYEVA

Egamova Nigora Ustamirzayevna

Lecturer, Independent PhD Candidate

Namangan State Institute of Foreign Languages named after Ishoqxon Ibrat,

Namangan, Uzbekistan

Annotation. This article examines the historical evolution of the female lyric "I" in Uzbek women's poetry from the nineteenth century to the late twentieth century. In the classical period, poets such as Uvaysiy and Nodira expressed the lyric subject within religious-mystical and traditional poetic forms. During the Soviet era, new social content and freer forms emerged in Uzbek women's poetry, and the lyric "I" gradually transformed. In the independence period, Halima Xudoyberdiyeva's poetry gave the female lyric subject a distinctly powerful, independent, and rebellious character. The article aims to identify the internal evolutionary direction of Uzbek women's poetry and to define the distinctive poetic model of each period.

Keywords: lyric I, female subject, Uzbek poetry, Uvaysiy, Nodira, Xudoyberdiyeva, poetic evolution

DOI: <https://doi.org/10.47390/ya-dif-y2026v2i13/n14>

Kirish

O'zbek ayol she'riyati o'z tarixi davomida lirik "Men" ning turli shakllarini ishlab chiqdi. Bu shakllar har bir tarixiy davrning ijtimoiy, madaniy va siyosiy sharoitlarini aks ettirdi. Ayol shoir o'z lirik subyektini qanday shakllantirgani, qanday cheklovlar bilan kurashgani va qanday imkoniyatlardan foydalangani — bular o'zbek adabiyotshunosligida hali yetarlicha o'rganilamagan masalalar. Ushbu maqolada Uvaysiydan Xudoyberdiyevagacha bo'lgan davr mobaynida o'zbek ayol she'riyatida lirik "Men" ning evolyutsion yo'nalishi qiyosiy-tarixiy tahlil qilinadi.

Adabiyotshunoslikda lirik “Men” tushunchasi shoir shaxsi bilan to’g’ridan-to’g’ri tenglashtirilib bo’linmaydi. Lirik subyekt — bu she’r matni ichida shakllanadigan, muallif biografiyasidan nisbatan mustaqil bo’lgan poetik ovoz. Ayol shoirlar uchun bu tushuncha ayniqsa muhim, chunki ular ko’pincha jamiyat belgilab qo’ygan “ayol” qiyofasi bilan o’z haqiqiy ichki ovozi o’rtasida keskin ziddiyatni his qilgan. Q. Yo’ldoshevning ta’kidlashicha, o’zbek she’riyatida lirik subyekt masalasi o’z mustaqil tadqiqotini kutmoqda [5; 12-b.]. Ushbu maqola shu bo’shliqdagi kichik bir qadam sifatida o’zbek ayol she’riyatiga bag’ishlangan.

Adabiyot tahlili va metodologiya

O’zbek ayol she’riyatida lirik subyekt masalasi adabiyotshunosligimizda turli aspektlarda o’rgantilgan. T. Mirzayev o’zbek ayol she’riyati tarixini mumtoz davrdan hozirgi kungacha kuzatib, har bir davrning o’ziga xos poetik xususiyatlarini aniqlagan [2; 5-b.]. Q. Yo’ldoshev esa o’zbek she’riyatida lirik subyekt muammosini nazariy jihatdan tadqiq etib, lirik “Men” va shoir shaxsi o’rtasidagi murakkab munosabatni tahlil qilgan [5; 8-b.]. B. Qosimov Zulfiya ijodini alohida o’rgantib, sovet davri o’zbek ayol she’riyatining o’ziga xos xususiyatlarini ochib bergan [3; 15-b.].

Xudoyberdiyeva ijodini tadqiq qilgan olimlar orasida B.B. Nusratov uning she’riyatidagi ayol obrazini alohida tahlil qilgan [1; 43-b.]. Biroq bu tadqiqotlarda lirik “Men” evolyutsiyasi muammosi kengroq tarixiy va qiyosiy kontekstda o’rgantilmagan. Hozirgi kunda o’zbek ayol she’riyatini jahon adabiyotshunosligiga tanishtirish va uning ichki rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Biroq ushbu tadqiqotlarda o’zbek ayol she’riyatida lirik “Men”ning evolyutsion yo’nalishi alohida tadqiqot ob’yekti sifatida ko’rib chiqilmagan. Mumtoz davrdan mustaqillik davrigacha bo’lgan butun tarixiy yo’lni bir maqola doirasida qiyosiy-tarixiy metod orqali tahlil qilish hali amalga oshirilmagan. Ushbu tadqiqot ana shu kamchilikni to’ldirish va o’zbek ayol she’riyatining o’z ichki evolyutsion mantiqini aniqlashga qaratilgan. Metodologik jihatdan maqolada tarixiy-qiyosiy va tipologik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Mumtoz davr: lirik “Men” va tasavvuf tili

O’zbek mumtoz adabiyotida ayol shoirlar an’anaviy she’riy shakllar — g’azal, muxammas, ruboiy — doirasida ijod qildi. Uvaysiy (1779–1845) va Nodira (1792–1842) bu davrning eng yorqin vakillari bo’lib, ularning lirik “Men”i tasavvuf falsafasi va islomiy axloq tizimi ichida shakllandi. B. Nusratovning ta’kidlashicha, bu davr ayol shoirlari o’z hissiyotlarini bevosita emas, balki diniy-falsafiy ramzlar orqali ifodaladi [1; 45-b.]. Mazkur davrda ayol lirik subyekt uchun o’z hissiyotini to’g’ridan-to’g’ri aytish ijtimoiy tomondan qiyin bo’lib, shuning uchun shoirlar tasavvuf timsollari, ishq va ayriliq mavzulari orqali o’z ichki kechinmalarini ifodaladi. Bu o’ziga xos poetik strategiya edi: tashqi cheklov ostida ichki ovozni saqlab qolish usuli.

Uvaysiyning she’rlarida lirik subyekt Allohga murojaat qiluvchi, sevgi azobini ilohiy ishq sifatida talqin etuvchi, ammo shu bilan birga o’z ayollik tuyg’ularini yashirmaydigan obrazdir. Uning she’rlarida shaxsiy dard keng ma’naviy kontekstda ko’rinadi: oshiqona his-tuyg’ular, ayriliq va ishtiyoq — bular tasavvuf tilidagi “yor” obrazi orqali ifodalanadi. Shu tarzda ayol shoir o’z shaxsiy his-tuyg’ularini poetik shaklga solib, jamiyat qabul qiladigan diniy-falsafiy tizim doirasida ifodalashi mumkin bo’lar edi. Uvaysiyning o’z misralarida bu strategiya yorqin ko’rinadi: “Chiqib ishq o’ti ko’ksim chokidin, boshimdin oshibdur” [2; 45-b.]. Bu misra lirik

“Men”ning ichki kuyinishini tashqi tasvir orqali ifodalanadigan she'riy texnikaning yorqin namunasidir.

Nodiraning “Fig'onkim...” g'azali esa o'zbek ayol she'riyatida birinchi marta shunday to'g'ridan-to'g'ri lirik e'tirof namunasi bo'lib, unda lirik subyekt an'anaviy poetik qoliqlar ichida turib o'z “Men”ini dadil namoyon etdi [6]. Bu o'zbek she'riyati tarixida o'ziga xos voqea edi: ayol shoir o'z lirik “Men”ini bevosita e'lon qildi [6]. T. Mirzayevning ta'kidlashicha, mumtoz ayol she'riyatida lirik “Men” “yashirin kuch” sifatida namoyon bo'lib, an'anaviy shaklning ichida yangi mazmun yaratdi [2; 34-b.]. Shoir ruhiy izzat va botiniy to'lqinlanishlarni yorqin dinamikada ifodalaydi; xususan, g'azaldagi:

*Gahi yirtib yaqo, gah qon yutib, gohi fig'on ettim
Nalar o'tdi bu axshom, Nodira, joni figorimdin...* [6]

misralari lirik “Men”ning ruhiy evrilishlari hamda ijtimoiy-madaniy cheklovlar qurshovidagi botiniy isyonini ifodalovchi kuchli badiiy vositadir. Nodiraning ijodiy subyekti kuchli, lekin ijtimoiy jihatdan cheklangan bo'lib, ayol lirik “Men” uchun yangi imkoniyat ochdi: shaxsiy ovoz siyosiy va madaniy kuch sifatida namoyon bo'la boshladi.

Sovet davri: yangi ijtimoiy “Men”

Sovet davri (1920–1991) o'zbek ayol she'riyatiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatdi. Bir tomondan, an'anaviy cheklovlar kamaydi va ayol shoirlar erkin she'riy shakllarda ijod qila boshladi. Boshqa tomondan, mafkuraviy talablar lirik “Men”ni siyosiy-ijtimoiy mavzularga yo'naltirdi. Zulfiya (1915–1996) bu davrning eng nufuzli ayol shoirasi sifatida ona, vatan va mehnat mavzularini lirik subyekt bilan uyg'unlashtirdi. Uning she'rlarida lirik “Men” ijtimoiy, kolektiv va milliy o'lchamga ega bo'lib, shaxsiy hissiyot ko'pincha ommaviy maqsadlar bilan qorishib ketdi [3; 112-b.]. Bu o'zgarish bir tomondan cheklov, ikkinchi tomondan esa yangi imkoniyat bo'lib xizmat qildi: ayol ovozi davlat va jamiyat tomonidan birinchi marta ommaviy miqyosda tan olindi.

Zulfiyaning lirik “Men”i shu kuchlilik bilan ifodalangan: “Men o'tan umrga achinmay qo'ydim, / Suydim, Erkalandim, Ayrildim, Kuydim, / Izzat nima — bildim. Shu-da bir yashash!” [3; 45-b.]. Bu misralarda lirik subyekt o'z tajribasini qabul qilib, undan faxrlanadi.

Sovet davrida lirik “Men”ning o'zgarishi yana bir jihatdan muhim: bu davrda ayol shoir birinchi marta rasmiy muassasalar va nashriyotlar orqali keng jamoatchilikka yetib bordi. Zulfiya yuz minglab kitobxonlar tomonidan o'qildi, uning she'rlarini maktablarda o'qitdilar. Shu yo'l bilan ayol lirik “Men” birinchi marta ommaviy madaniy maydonda o'z o'rnini egalladi. Sovet davrining so'nggi bosqichida, 1970–80-yillarda, mafkuraviy bosim biroz yumshaganida, o'zbek ayol she'riyatida shaxsiy lirik “Men” yana kuchaya boshladi. Ayol shoirlar o'z ich-ichki kechinmalarini, sevgi va ayriliq azobini, ona va farzand munosabatlarini yanada to'g'ridan-to'g'ri ifodalaydigan she'rlar yaratdi. Bu o'zgarish Halima Xudoyberdiyeva ijodida o'z cho'qqisiga yetdi.

Sovet davrining o'zbek ayol she'riyatiga ko'rsatgan ta'sirini baholashda bir muhim jihatni e'tiborga olish kerak: bu davr ayol shoirlarga adabiy ta'lim olish, nashr etish va keng kitobxonlar bilan muloqotga kirish imkonini berdi. Shu jihatdan sovet davri o'zbek ayol she'riyati uchun paradoksal davr bo'lib chiqdi: u bir tomondan chekladi, boshqa tomondan esa keng auditoriya va nashr imkoniyatlarini berdi. Bu ikki tomonlama ta'sir keyinchalik mustaqillik davri ayol she'riyatining kuchli bazasini shakllantirdi.

Mustaqillik davri: mustaqil “Men”

Halima Xudoyberdiyeva (1947–2018) o'zbek ayol she'riyatida lirik “Men”ning eng kuchli va isyonkor ifodasini yaratdi. Uning 1987-yilda nashr etilgan “Muqaddas ayol” to'lamida o'zbek she'riyatida ayol lirik subyektni yangi bosqichini belgiladi. Bu to'plamda lirik “Men” na an'anaviy g'azal doirasida, na sovet mafkurasi talablarida cheklangan — u o'z qadr-qimmatini, isyon va mustaqilligini to'la ovozda e'lon qildi [4; 23-b.]. Xudoyberdiyeva shu tarzda o'zbek ayol she'riyatida lirik “Men”ning yangi, hech qachon bo'lmagan modelini yaratdi — to'la mustaqil, o'z-o'zini belgilovchi subyekt modelini.

Xudoyberdiyevaning lirik subyekti ikkita o'zaro zid, ammo bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega: tashqi tomondan u muloyim, ichki tomondan esa qudratli. “Ayol o'tib borar” she'rida bu ikki qutb shunday ifodalandi: ichida yo'lbars o'kiradi, ammo tashqaridan u mayin jilmayadi. Bu obraz mumtoz adabiyotning tasavvufiy “Men”idan ham, sovet davrining ijtimoiy “Men”idan ham keskin farq qiladi — bu to'la ma'noda shaxsiy, erkin va o'z-o'ziga xos lirik subyektdir. Shu bilan birga, Xudoyberdiyeva lirik subyekti o'z madaniy ildizlaridan uzilmagan: u islomiy axloqiy an'ananing qadr-qimmat tushunchasini saqlagan holda isyon ko'rsatadi.

Xudoyberdiyevaning “O'zimning yo'lim” she'rida mustaqil lirik “Men” eng to'la ifodalanadi: “Men ochgan yo'ldir bu. O'zimning yo'lim / Qolsa o'z yo'limda qoladi murdam” [4; 89-b.]. Bu misralar o'zbek ayol she'riyatida lirik “Men”ning eng qat'iy, eng mustaqil ifodasidir.

Xudoyberdiyevaning “Yo'ldadirman” she'rida lirik “Men” harakatdagi, maqsadga intilayotgan obrazni beradi: ayol lirik subyekt endi passiv emas, faol; bironvaga qaramaydi, o'z yo'li bilan yuradi. “Oldimdan oqqan suv” she'rida ona va farzand munosabati suv metaforasi orqali ifodalanadi — ona oqib o'tgan suv, faqat yo'qolganda anglanadi. Bu she'rlar dissertatsiyamizda tadqiq etilayotgan ayol subyektivligi va lirik “Men” muammosining o'zbek she'riyatidagi eng yorqin namunasidir. Xudoyberdiyeva ijodida lirik subyekt bir vaqtning o'zida shaxsiy, milliy va universal xarakter kasb etadi [4; 67-b.].

Qiyosiy tahlil: uch davrning poetik modeli

Yuqorida ko'rib o'tilgan uch davrni qiyosiy tahlil qilganda, o'zbek ayol she'riyatida lirik “Men”ning evolyutsion yo'nalishi ravshan ko'rinadi. Mumtoz davr lirik “Men”i uchun asosiy xususiyat — ichki kuchlilikning tashqi cheklov bilan uyg'unligi. Uvaysiy va Nodira lirik subyekti qudratli, ammo an'anaviy poetik tizim doirasida harakat qiladi. Bu model o'ziga xos strategik xususiyatga ega: cheklov va ijodkorlik o'rtasidagi muvozanat.

Sovet davri lirik “Men”i esa butkul boshqa vaziyatda shakllanadi. An'anaviy cheklovlar o'rnini mafkuraviy talablar egalladi. Zulfiya ijodida lirik subyekt yangi madaniy kontekstda o'z o'rnini topdi: u ijtimoiy va milliy vazifalarni bajaruvchi, lekin shu bilan birga shaxsiy histuyg'ularini ham yo'qotmagan subyektdir. Bu davr lirik “Men”ining eng muhim yutug'i — ommaviy auditoriyaga chiqish va she'riy ovozning rasmiy madaniy maydonga kirib borishi.

Mustaqillik davri lirik “Men”i esa bu ikki modelni ham rad etadi va tamomila yangi yo'nalishni belgilaydi. Xudoyberdiyeva lirik subyekti na an'anaviy cheklovlarga bo'ysunadi, na mafkuraviy talablarga mos keladi. U o'z-o'zini belgilaydi, o'z ovozi va o'z yo'li bilan yuradi. Ayni paytda, bu model nafaqat G'arb ta'sirida emas — u o'zbek milliy-madaniy an'anasining ichidan o'sib chiqqan, lekin uni yangi poetik darajaga ko'targan organik hodisadir. Bu qiyosiy tahlil dissertatsiyamizning asosiy metodologik yondashuvini — Sharq va G'arb modellarini tengma-teng ko'rib chiqish zarurligini — o'zbek adabiyoti misolida isbotlaydi.

Xulosa

O'zbek ayol she'riyatida lirik "Men"ning evolyutsiyasi uch asosiy bosqichdan iborat: mumtoz davrning diniy-tasavvufiy "Men"i, sovet davrining ijtimoiy-kollektiv "Men"i va mustaqillik davrining shaxsiy-isyonkor "Men"i. Har bir bosqich o'z davri cheklovlari va imkoniyatlari doirasida ayol lirik subyektining o'ziga xos modelini shakllantirdi. Uvaysiy va Nodira lirik "Men"ini an'anaviy poetik tizim ichida ifodalasa, Zulfiya uni ijtimoiy mavzular bilan boyitdi, Xudoyberdiyeva esa to'la mustaqil va isyonkor lirik subyekt modelini yaratdi.

Bu evolyutsiya o'zbek she'riyatining o'z ichki mantiqiga ko'a kechgan bo'lib, xalqaro adabiy ta'sirlardan mustaqil ravishda shakllangan milliy poetik hodisadir. Shu jihatdan o'zbek ayol she'riyatidagi lirik "Men" evolyutsiyasini alohida, mustaqil adabiy hodisa sifatida o'rgantish o'zbek adabiyotshunosligining dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu tadqiqot dissertatsiyamizning asosiy maqsadidan — o'zbek ayol she'riyatida ayol subyektivligi va lirik "Men"ning o'ziga xos shakllanish qonuniyatlarini aniqlashdan — organik ravishda kelib chiqib, bu yo'nalishdagi keyingi tadqiqotlar uchun nazariy zamin yaratadi [5; 189-b.].

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Nusratov B.B. Halima Xudoyberdiyeva ijodining o'rgantilishi // Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. — Namangan, 2024. — B. 43–48.
2. Mirzayev T. O'zbek ayol she'riyati tarixi. — Toshkent: Fan, 1999. — 240 b.
3. Qosimov B. Zulfiya: hayoti va ijodi. — Toshkent: Adabiyot va san'at, 1985. — 180 b.
4. Xudoyberdiyeva H. Muqaddas ayol. — Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1987. — 112 b.
5. Yo'ldoshev Q. O'zbek she'riyatida lirik subyekt muammosi. — Toshkent: Fan, 2010. — 196 b.
6. Nodira g'azallari va she'rlar to'plami. Nodira hayoti va ijodi. Tarjimai holi <https://ilmlar.uz/nodira-gazallari-va-she'rlar-toplami/> [Murojaat sanasi: 07.07.2026]

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, 10-iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (iyul, 2026-yil). – 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.